

O‘ZBEKISTONDA 3-RENESSANS POYDEVORINING YARATILISHIDA GUMANITAR FANLARNING AHAMIYATI

O‘dayev Ravshanbek Kenjaboy o‘g‘li

Toshkent farmatsevtika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

Narziqulova Mehribon Ma‘rufjon qizi

Toshkent farmatsevtika instituti Sanoat farmatsiyasi fakulteti talabasi

Dolzarbli: 1-renessans - butkul no‘noqlanib qolgan bilim, tajribasiz g‘oyalar, dalilsiz mulohazalar og‘ushida yashagan kishilarning ma‘nisiz hayotiga barham bergan davr desak, also, mubolag‘a bo‘lmaydi. Demak, sivilizatsiyaga qadam deya atalayotgan uyg‘onish davrining navbatdagi bosqichini 2-renessansga yo‘naltiramiz. Diniy va dunyoviy ko‘nikmalar, hayotiy tajribalar va turli xil sinovlar iskanjasida jizg‘anak bo‘lib pishgan xalqimiz, avvalgi, davrning “dog‘larini oqartirib” yangi sivilizatsiya tomon qadam tashlashga tayyor edi. 2-renessans “Tamerlan” – “oqsoq” - Amir Temur boshqaruv paytlari – XIV-XV asrlarda ro‘y bergan bo‘lib, bu davrda ilm-fan, hunarmandchilik, me‘morchilik, binokorlik kabi sohalar jadal sur‘atlar bilan rivojlantirildi. Buyuk allomalarimiz Alisher Navoiy, Shomiy, Muhammad Darvish Ali, Sulton Murod, Shayx Husayin, Tojiddin Xakim va shu kabilarning qilgan tajribalari va yozib qoldirgan kitoblari tufayli tibbiyot sohasiga tamal toshi qo‘yildi. Yuqorida qayd etilgan olimlarning farmatsevtika sohasida qilgan xizmatlari haqidagi ma‘lumotlar yetarlicha bo‘lmagani mavzuning dolzarblihi hisoblanadi.

Maqsadi: Rennesanslar poydevorining barpo etilishida, farmatsevtika sohasi ham jadal suratlar bilan rivojlanayotganini ko‘ramiz. Dori tayyorlash sanoatida birgina adashish: biron o‘simlikni kamroq yoki ko‘proq qo‘shish dori sifati ta’sir doirasining buzilishiga, ekstrakt malhamlarni noto‘g‘ri qo‘llash yoki bo‘lmasa kimyoviy element yoxud eritmalardan foydalanilayotganda 1 ml adashish ham inson salomatligiga salbiy ta’sir etishi, hattoki, hayotiga barham berishi mumkin. Ustiga-ustak ularning bu xatoliklarni qilmasliklari uchun yetarlicha shart-sharoit, asbob-uskunalar ham yo‘q edi. Shunday bo‘lsa ham, bu kabi sabablar olimlarni ilmiy izlanishlar orqali tajribalar olib borishlariga also to‘sqinlik qilmadi. Og‘ir dardga chalinganlarga qayta hayot ulasha bilgan – Xakim Kirmoniy – “Xosiyatlar dengizi” kitobi, Nafis ibn Avaz – “Kasallik sabablariga sharh”, “Dori tayyorlash san’ati” asari, Nurbaxshiy Bahouddavla – “Tajribalar xulosasi” asari, Alisher Navoiy – “Mahbub ul qulub” asari, Darvish Ali – “Kishilarga eslatma” kitobi, Yusuf al-Haraviy – “Ovqat va ichimliklar haqida risola”, “Muruvvatli kishilarga foyda keltirish”, “Kasalliklarni davolash” va boshqa shu kabi olimlarimiz va ular yaratgan asarlar 2-renessansning olmosli ustunlaridir. Amir Temurning shaxsiy shifokori Fayzulloh Tabriziy, hamisha uning

sog‘lig‘idagi muammolarga yechim topgan, yaralariga malham qo‘ya bilgan. Temurning Samarqanddagi “Dorush shifo” kasalxonasida esa - Mir Sayid Sharif rahbarlik qilgan. Tajribali, o‘z ishining mutaxassisiga aylangan - Burxoniddin Nafis ibn Avaz “Dori tayyorlash san’ati”, “Kasallik sabablariga sharh” deb nomlangan mashhur asarlar muallifidir. U o‘z kitoblarida oddiy va murakkab dorilarni qanday tayyorlash, ularni qo‘llash haqida yozadi. Dunyoga dong‘i ketgan “Xosiyatlar dengizi” kitobining asoschisi – Xakim Kirmoniydir. Bu kitob bir muqaddima, uch bo‘lim va bir xotimadan iborat. 1-bo‘limi – yakka holda ishlatiladigan dorilar; 2 – bo‘limi – murakkab dorilar – bir necha moddani qo‘shib tayyorlash va qo‘llashni o‘rgatadi. 3- bo‘lim esa qaysi dorilarni qo‘llash kerakligi – kasallik og‘ir-yengilligiga qarab, oddiy yoki murakkab dori tavsiyalari ko‘rsatiladi. Uning bu kitobi sharqning buyuk tabiblari ko‘nikma va tajribalarini o‘zida mujassam etgan. Tabiblarning nafaqat bilimiga, balki muomala, fe‘l-atvoriga alohida urg‘u bergan shaxs bu – Alisher Navoiy. Uning fikricha, tabib o‘z sohasining mutaxassisi bo‘lishi bilan birga, u insonparvar, rahm-shavqatli, dilkash, xushmuomala, kamtarin bo‘lishi kerak. Tajribasiz, chalasavod, nodon tabiblarni esa jallodga qiyoslaydi. Navoiy tomonidan qurdirilgan nochor odamlarga bepul xizmat ko‘rsatadigan “Shifoxiya” kasalxonasida Qutbiddin Odam, Muhammad Muyin kabi tajribali tabiblar faoliyat olib borishgan. Nozik tabiati va xushmuomalaliligi bilan boshqalardan ajralib turgan – Darvish Ali “Kishilarga eslatma” asarini yozgan. Bu kitobida kasalliklarni aniqlash va davolashga bir qancha yangiliklar kiritgan. Yusuf tabibning eng mashhur asari “Kasalliklarni davolash”dir. Asarda, avval, bosh miya kasalliklari, so‘ngra quyi a‘zolarga o‘tiladi. Bosh miya kasalligiga to‘xtalib, miyaga qon quyilishi (infarkt) haqida fikr yuritadi. Bu vaqtda qon zarurligi ko‘rsatilgan, zaxm kasalligiga davo topgan. U kasallikda tanosil a‘zolarining zararlanishini o‘rgatadi va bularni davolashda simob preparatlarini ishlatgan. Shu kabi olimlarimiz renessansning qayta ildiz otishiga sababchi bo‘lgan shaxslardir.

Usul-uslublar: Uyg‘onish davrining navbatdagi bosqichi – 2-renessansda, dori sanoati yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy izlanish va tajribalar sivilizatsiyasini e‘tirof etishda xolislik metodi bilan yondashildi. Bu asrda insonlar hayotiga nur taratgan allomalarimiz – Alisher Navoiy, Xakim Kirmoniy, Darvish Ali, Yusuf al-Haraviy va ularning yozib qoldirgan “Mahbub ul-qulub”, “Xosiyatlar dengizi”, “Kasallik sabablariga sharh”, “Dori tayyorlash san’ati”, “Tajribalar xulosasi”, “Kishilarga eslatma”, “Kasalliklarni davolash”, “Muruvvatli kishilarga foyda keltirish” va shu kabi asar va qo‘llanmalarining bayonoti berilishida tarixiylik metodidan foydalanildi.

Natijalar: 2-renessans g‘ishtlar ketma-ketligini terar ekanmiz, tobora davr sivilizatsiya bilan inson ongining har tomonlama uyg‘un va hamohang rivojlanayotganini ko‘rib boramiz. Ya’ni davrlar o‘tgan sayin odamlarning dunyoqarashlari, imkoniyatlar doirasining

kengayib borayotgani buning yaqqol misolidir. Olimlar inson kasalliklarini oldini olish, ularni davolashning yangi va samarali g‘oya hamda takliflari bilan xalq davrasiga chiqishdi. Tajribalar maydonchasini also tark etishmadi, bo‘lmasa bo‘lguncha, o‘xshamasa o‘xshaguncha, topolmasalar topgunlaricha izlandilar, harakat qildilar, natijada, masalining yechimini ham topdilar. Ular eng, avvalo, atrofi-olamdagi tirik tabiatdan shifo topishdi. Tabiblarning tabiiy o‘simliklardan tayyorlagan damlama, shifobaxsh giyohlari ularning har tomonlama yutug‘lari edi. Chunki tabiiy xomashyodan tayyorlangan muolajar insonning dardiga shifo bo‘lib gina qolmasdan, boshqa sog‘lom organlarining funksiyalarini ham yanada yaxshilashga yordam beruvchi omil edi. Masalan, biron dorivor o‘simlikning gulini damlamasi bir organga, poyasining qaynatmasi boshqa organga foydali bo‘lishi mumkin. Agar har ikkalasi bittada iste‘mol qilinsa, organlarining ishini yaxshilashga sababchi bo‘ladi. Shuning uchun tabiblar dori tayyorlash uchun o‘simliklarni o‘rmon va tog‘lardan terib kelishgan, o‘z uylarining yonidagi yerda dorivor o‘simliklarni o‘stirib, xususiyatlarini o‘rganishgan. Shu davrda Xorazm Ma‘mun akademiyasida dorivor o‘simliklar va minerallar yig‘ish hamda ularni sharhlash bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan. Ammo, ming afsuski, olimlar hamma qilgan tajribalarini birma-bir qog‘ozga tushirgan bo‘lsada, bugungi kungacha ko‘plab qo‘llanmalar bizgacha yetib kelmagan. Yurtimiz qaramlikka yuz tutganda bolsheviklar tariximizga o‘t qo‘yib, kelajagimizga po‘pisa qilishdi. Yurtimizning noyob merosini kiprik qoqmay yonib turgan alangaga tashladi. Kitoblarning qolgan qismi esa yashirin yo‘llar bilan Yevropa millatlariga olib chiqib ketildi. Natijada, xalqimiz yana “olmosli merosi”ning anchagina qismidan ayrildi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, qaysi renessans haqida gaprmaylik, farmatsevtika sohasi haqida gap ochmaylik, bizga to‘laonli fakt va ma‘lumotlar yetib kelmaganini ko‘ramiz. Isitilochilar tabiblarimiz aqidalarini, xalqimizning urinishlarini nazar-pisand qilmadi. Mudrab yotgan dunyoni uyg‘otgan allomlarimizning mehnatini birgina cho‘g‘ uchquni bilan mayda-mayda kul zarrachalariga aylantirildi, ularning bir necha sohalarni qamrab olgan mafkuraviy g‘oyalari esa axlatga uloqtirildi. Odamlar ongidan tarix siymolari o‘chirtirilib, bundan buyog‘iga ularni manipulyator “manqurt hayot tarzi”da yashash uqtirildi. Iste‘dodli bo‘lg‘usi tabiblarning imkoniyatlari cheklantirilib, O‘zbekistonni rivojlanishiga hamisha qarshi turgan bolsheviklar odamlarning bilim manbalarini “eski sandiq ichida chang bosib yotish”iga sababchi bo‘ldi. Kelgusi hayotimiz ularning qo‘lida bo‘lishi bilan po‘pisa qilib, nurligi kelajagimiz eshigini qulflashdi. Endilikda biz 3-renessans poydevorini qurishda davom ettirar ekanmiz, uni boshlashdan, avval, yopilgan eshigimizni kalit bilan bo‘lmasa ham, buzib ochishimizga yurtimiz muhtojdir. Qisqa emas, uzoq tanaffusdan so‘ng, mudroqdagi xalqimizni uyg‘otish, allomalarimiz qilgan ishlarini davom ettirish, davlatimizni rivojlantirish uchun yangi investitsiyalar kiritish bizning ham farzimiz, ham

burchimizdir. Shularni bilsakda, nega hali-hanuz 3-renessans davri boshlanmadi? Qiziq, butun koinotni uyg‘otolgan buyuk shaxslarning avlodlari bir kun kelib asrlar davomida uxlab yotishini kim bilibdi deysiz?! Bu safar xalqimizni nega bunchalar uzoq yillardan beri qotib qolganini “oqlash” uchun qanday bahonalar bilan “vijdonimizni poklasak” ekan?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A.Odilov, A.A.Ermetov, A.Insopov, D.Iymanova, D.To‘xtaboyeva, J.N.Polvonov, H.Holiqulova, J.Karimjonov, K.D.Saipova, M.Topildiyeva, M.M.Xaydarov, O.Alimardonov, R.H.Murtazayeva, R.Xomitov, S.M.Atadjanova, T.I.Doroshenko – O‘zbekistonning eng yangi tarixi oliy o‘quv yurtlarning nomutaxassis ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik.

2. B.X.Boltayeva, R.K.O‘dayev – O‘zbekistonning eng yangi tarixi modulidan uslubiy qo‘llanma.

3. I.A.Karimov – Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch.

4. N.K.Stojarova, Q.Ch.Nurmamatova, X.E.Rustamova, Sh.A.Abdurashitova – Tibbiyot tarixi o‘quv qo‘llanma.

5. Sh.M.Mirziyoyev – Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.

6. Ibrohimovich A. H. MODERN FACTORS FOR RAISING STUDENT-YOUTH INNOVATIVE THINKING IN THE HIGHER EDUCATION //American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2023. – T. 15. – C. 202-206.

7. Абдурахмонов Х. И. ҲОЗИРГИ ДАВРДА ЁШЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ПОТЕНЦИАЛИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МОДЕЛЛАРИ //Tafakkur manzili. – 2023. – T. 4. – C. 23-29.

8. Abdurahmonov H. I. CHARACTERISTICS OF FORMATION OF INNOVATIVE THINKING IN SOCIETY //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – T. 2. – №. 7. – C. 161 167.

9. Ibroximovich A. K. INNOVATIVE THINKING AND ITS FORMS AND TYPES OF MANIFESTATIONS. European Scholar Journal, 3 (5), 38-41 [Электронный ресурс].

10. Anvarovich P. A. et al. SUN'YI INTELEKKTNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI, FOYDALI VA ZARARLI JIHATLARI //PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOYIY TADQIQOTLAR| JOURNAL OF PEDAGOGY, PSYCHOLOGY AND SOCIAL RESEARCH. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 7-13.

11. Anvarovich P. A. et al. SUN’IY INTELEKKTNING KUNDALIK HAYOTIMIZGA TA’SIRI, BIZ UCHUN BU HODISA IJOBOYMI? //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2024. – T. 4. – №. 2. – C. 9-13.

12. Ibroximovich A. X. et al. “O‘ZBEKISTON-2030” STRATEGIYASINING AMALIYOTDA JORIY QILINISHI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2024. – T. 4. – №. 1. – C. 58-64.

13. Kenjaboy o‘g, O. D. R., & Magripovna, A. D. (2024). SOHIBQIRON AMIR TEMUR HARBIY BOSHQARUV TIZIMI TARIXSHUNOSLIGI. *SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(2), 131-136.

14. Kenjaboy o‘g, O. D. R. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI HARBIY SAN’ATI TARIXINING HOZIRGI KUN MILLIY ARMIYAMIZDA TADBIQ ETILISHI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(34), 183-189

15. Kenjaboy o‘g, O. D. R. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI HARBIY SAN’ATI TARIXINING HOZIRGI KUN MILLIY ARMIYAMIZDA TADBIQ ETILISHI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(34), 183-189.